



## GEOGRAFIYA DARSLARIDA ZAMONAVIY O'YIN TEXNOLOGIYALAR.

Djurayev Mansur Egamberdiyevich  
Guliston davlat universiteti, g.f.f.d., dotsent  
Husenov Jahongir Qo'shmurod o'g'li  
GulDU qoshidagi akademik litsey geografiya fani o'qituvchisi  
Qurbonova Charos Toshmurod qizi  
Guliston davlat universiteti 18-21 guruh talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.11175291>

### ARTICLE INFO

Received: 4<sup>th</sup> April 2024  
Accepted: 6<sup>th</sup> May 2024  
Published: 10<sup>th</sup> May 2024

### KEYWORDS

*geografiya, innovatsion o'qitish,  
zamonaviy metod, zamonaviy  
texnologiyalar, muammolarni  
o'rganish*

### ABSTRACT

*Hozirgi zamon jadallashib, tezlashib bormoqda. Shu bilan bir qatorda fan sohaslarida ham yangiliklar bo'lib, o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanilmoqda. O'qitishning yangicha uslub va metodlar vujudga kelmoqda. Ushbu metodik tavsiyada ham adabiyot darslarini tashkil etishda yangicha yondashuv va metodlar keltirilgan*

Ma'lumki, bugungi kunda ta'lim tizimini rivojlantirish, pedagogik jarayonlarning sifat va samaradorligini oshirish, pedagog-kadrlarni tayyorlash tizimini ilmiy va innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki yurtimizdagi bugungi shiddat bilan rivojlanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining barcha sohalarga kirib borishi hamda raqamlashtirish jarayonining tezlashuv bugungi kunda har bir pedagog-kadrdan yangicha fikrlash, yangicha tafakkur va yangicha faoliyat yuritishini talab etmoqda. Bugungi kunda davlatimiz ta'limi sohasi oldiga qo'yayotgan vazifalarning bajarilishi ko'p jihatdan pedagogga bog'liq.

Geografiya darslarida ma'ruza, og'zaki bayon, tushuntirish orqali ko'p samaraga erishib bo'lmaydi. Darslarni samarali tashkil qilishning asosiy shartlaridan biri, turli o'yin va amaliy mashg'ulotlar orqalin darslarni o'tishdir. Bu yo'l orqali darslarga befarq bo'lgan har qanday o'quvchi yoshni jalb qilish imkonimiz bo'ladi.


Ta'lim jarayonida multimedia vositalari, hamda turli internet saytlari yordamida darslarning samaradorligini oshirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Rivojlangan xorijiy davlatlarda o'qitishning bu usulini ta'lim sohasining barcha yo'nalishlari bo'yicha tadbiiq qilinib kelinmoqda. Mazkur internet tarmoqlari yordamida o'qitishda an'anaviy ta'lim usullariga nisbatan o'quvchilar xotirasida uzoq muddat saqlanib qoladi.

Quyida anashunday ayrim web-saytlar va ulardan geografiya darslarida to'g'ri foydalanish haqida so'z boradi:

### 1. "Geografiya poyga" o'yini

Ushbu o'yinda sinfdagi har bir o'quvchiga bir davlat biriktiladi. Va quyidagicha jadval chiziladi (1-rasm). So'ngra har bir o'quvchiga fanga oid savollar beriladi. To'g'ri javob bergan o'quvchi "Finish" tomonga bir qadam yaqinlashadi. Xato javob beradigan bo'lsa bir qadam orqaga qaytadi. Savollarga to'g'ri javob berib marraga birinchi kelgan ishtirokchi g'olib hisoblanadi. Bu o'yinni onlayn tarzda ham tashkillashtirishingiz mumkin. Ushbu interaktiv faoliyat raqamli, sinfingiz uchun juda mos keladi. Chunki o'quvchilar bir vaqtning o'zida jadvalni boshqarishi va natijalarni real vaqt rejimida ko'rishlari mumkin. Ular qaysi davlat muhim resurslarga ega ekanligi va ular boshqa davlatlar bilan solishtirganda qanchalik uzoqda ekanligini muhokama qiladilar.

URL: [www.populationeducation.org](http://www.populationeducation.org)




1-rasm. "Geografiya poyga" o'yinining sxematik tuzilishi

## 2. Davlatlarning shakli, jumboqli o'yin

Xaritalar o'quvchilarga mamlakatlar bir-biriga qanday mos kelishini o'rgatish va qo'shni davlatlar haqida tushunchaga ega bo'lish uchun ajoyib sayt. Siz o'zingizning xaritangizni yaratishingiz va keyin o'quvchilar uni qayta tiklashlari uchun kesib olishingiz mumkin. Agar siz bir nechta xaritalarni chop qilsangiz, o'quvchilar guruhlarda ishlashlari mumkin.

URL: [www.brighthubeducation.com](http://www.brighthubeducation.com)



2-rasm. Bright Hub Education sayti

### 3. Moslashtir o'yini


Saytga kirganingizda quyidagicha xaritali o'yin chiqadi (3-rasm). O'yinni o'ynash uchun daryo nomining ustiga bosib, daryo joylashgan doira shaklidagi nuqtaga etasiz. Belgilangan doira shaklidagi nuqta daryo nomi bilan birlashadi. Nuqta va daryo nomi orasida ma'lum rangdagi to'g'ri chiziq chiziladi. Sayt turk tilida bo'lib, undan foydalanish juda qulay va tushunarli.

2:54



3-rasm. "Nomlariga ko'ra moslashtiring" o'yini

O'yin oxirida "Cevapları gönder" tugmasini bosish orqali bilimingizni qay darajada ekanligini o'rganib olishingiz mumkin (3-rasm). Daryolarni moslashtirish uchun sizga besh daqiqa vaqt ajratiladi. Bu o'yin orqali o'quvchilaringizni daryolarni o'rganishga qiziqishini ortishiga, daryolarning geografik o'rnini bilib olishlariga yordam berasiz.



4-rasm. “Nomlariga ko‘ra moslashtiring” o‘yinining natijasi

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djurayev, M. E., & Kurbanova, C. T. (2024). PROTECTED AREAS IN WILDERNESS LANDSCAPES AND ENSURING ECOLOGICAL SECURITY IN UZBEKISTAN. *Journal of Geography and Natural Resources*, 4(01), 146-152.
2. Джураев, М. Э. (2021). ЗНАЧЕНИЕ ГЕОХИМИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В ВЕРТИКАЛЬНОЙ И ГОРИЗОНТАЛЬНОЙ СВЕЗИ ПАРАГЕНЕТИЧЕСКИХ ЛАНДШАФТОВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ. *Экономика и социум*, (10 (89)), 636-640.
3. Sattarov, S. M., Khudaykulov, S. I., Djuraev, M. E., & Axunbabaev, M. M. (2018). DETERMINATION OF THE CONCENTRATION OF NON-CONSERVATIVE SUBSTANCES IN A MULTI-DENSITY FLOW. *Bulletin of Gulistan State University*, 2018(2), 7-12.
4. Djurayev, M., & Husenov, J. (2022). STUDIES IN GEOGRAPHY, CONFLICTS AND SOLUTIONS IN APPLIED GEOGRAPHY. *Journal of Geography and Natural Resources*, 2(01), 24-28.
5. Baxtiyor o'g'li, R. I. (2023). UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA GEOGRAFIYANI O'QITISHNING ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH.
6. J.G.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. *Pedagogik texnologiya asoslari*. T: “O qituvchi”. 2004 y
7. M.T.Mirakmalov, M.M.Avezov, E.Y.Nazaraliyeva. *Tabiiy geografiyadan amaliy mashg ulotlar*. T: “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2015 y.